MADANIY TURIZM INDUSTRIYASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	764
Toxirov Dilyor Davlatovich	
MOLIYAVIY AUTSORSING NAZARIYALARI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	768
Babadjanov Umidbek Kamildjanovich	
TURIZM – TARIXIY XOTIRA VA ZAMONAVIY XIZMATLAR UYG'UNLIGI IFODASI	773
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOHIYATI VA BAHOLASH MEZONLARI	777
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI	784
Ro'ziyeva Shaxlo Salimboyevna	
AXBOROT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH	788
Samiyeva Maftuna Faxriddin qizi	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI DAROMADLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	791
Sanayev Javoxir Shovkat o'g'li	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	796
Maxmudov S.T.	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ КЛАСТЕРОВ	801
Юсупова Н.Т.	
SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY FAKTORLAR TAHLILI	807
Rahimova Mushtariybegim Muxammadg'olib qizi	
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI.....	812
Abdumalikova G.F.	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA SIYOSATINI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSION ASOSLARI	821
Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	
RAQAMLI AVIATSIYA EKOTIZIMI: AI/ML, DIGITAL TWIN VA BLOKCHEYN INTEGRATSIYASI	828
Azimova Moxinur Nozimovna	



RAQAMLI AVIATSIYA EKOTIZIMI: AI/ML, DIGITAL TWIN VA BLOKCHEYN INTEGRATSIYASI

Azimova Moxinur Nozimovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Biznes boshqaruvi” kafedrası magistri

mohinurazimova20@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada aviatsiya tizimlarida raqamli transformatsiyaning yadro yo'nalishlarini tizimli tahlil qilinadi. Xususan, ATMDa AI/ML asosida traektoriya va trafik prognozi, konfliktlarni erta aniqlash hamda qarorlarni qo'llab-quvvatlash; samolyot hayotiy siklida Digital Twin orqali prediktiv MRO va operatsion optimallashtirish; ATC muloqotida ASR/NLP yordamida xatoliklarni kamaytirish; MRO yozuvlarida blokcheyn bilan izchillik va ishonchlilikni ta'minlash kabilarni izchil o'rganib chiqiladi. Raqamli texnologiyalarning xavfsizlik va samaradorlikni oshirish bilan birga standartlashtirish, ma'lumot sifati va regulativ muvofiqlik kabi cheklovlarini ham ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Raqamli transformatsiya Aviatsiya tizimlari Havo harakati boshqaruvi (ATM) Sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish (AI/ML) Raqamli egizak (Digital Twin) Prediktiv texnik xizmat (MRO) Avtomatik nutqni tanish (ASR) Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) Blokcheyn.

Abstract. This paper systematically analyzes the core areas of digital transformation in aviation systems. In particular, AI/ML-based trajectory and traffic forecasting, early conflict detection and decision support in ATM; predictive MRO and operational optimization through Digital Twin in the aircraft life cycle; error reduction using ASR/NLP in ATC communication; ensuring consistency and reliability in MRO records with blockchain, etc. are systematically studied. It also shows the limitations of digital technologies, such as standardization, data quality and regulatory compliance, while improving safety and efficiency.

Key words: Digital Transformation Aviation Systems Air Traffic Management (ATM) Artificial Intelligence and Machine Learning (AI/ML) Digital Twin Predictive Maintenance (MRO) Automatic Speech Recognition (ASR) Natural Language Processing (NLP) Blockchain.

Аннотация. В данной работе систематически анализируются основные направления цифровой трансформации авиационных систем. В частности, систематически исследуются такие направления, как прогнозирование траектории и движения на основе искусственного интеллекта и машинного обучения, раннее обнаружение конфликтов и поддержка принятия решений в системе ATM; предиктивный MRO и эксплуатационная оптимизация с помощью цифрового двойника в жизненном цикле воздушного судна; снижение количества ошибок с помощью ASR/NLP в системе ATC; обеспечение согласованности и надежности данных MRO с помощью блокчейна и т. д. Также показаны ограничения цифровых технологий, такие как стандартизация, качество данных и соблюдение нормативных требований, при одновременном повышении безопасности и эффективности.

Ключевые слова: Цифровая трансформация Авиационные системы Управление воздушным движением (УВД) Искусственный интеллект и машинное обучение (ИИ/МО) Прогностическое обслуживание с использованием цифровых двойников (ТОиП) Автоматическое распознавание речи (ASR) Обработка естественного языка (NLP) Блокчейн.

KIRISH

Aviatsiya sanoati, hammaga ma'lumki, xavfsizlik, ishonchlilik va vaqtni muvozanatli boshqarish bo'yicha eng talabchan tarmoqlardan biridir. Shuning uchun ham, so'nggi o'n yil ichida havo transporti tizimlarida raqamli transformatsiya jarayoni tobora jadallashib bormoqda. Boshqacha aytganda, bugun-erta raqobatdosh bo'lishni istagan har qanday aviatsiya tashkiloti — bu aviakompaniya bo'ladimi, aeroport operatori yoki navigatsiya xizmati ko'rsatuvchi korxona bo'ladimi — sun'iy intellekt (AI/ML), raqamli egizaklar (Digital Twin), blokcheyn, hamda nutqni avtomatik tanish va NLP kabi ilg'or texnologiyalarni o'z operatsion jarayonlariga chuqur singdirishga majbur. Zero, ushbu texnologiyalar boshqaruv qarorlarini ma'lumotlarga tayantiradi, texnik



xizmat (MRO)ni oldindan rejalashtirishga yo'l ochadi, ATC–pilot muloqotida xatoliklarni kamaytiradi va, albatta, umumiy operatsion samaradorlikni barqaror oshiradi. Xususan, AI ATMdagi konfliktlarni erta aniqlash, trafik oqimini prognoz qilish va avtomatlashtirilgan qaror variantlarini tayyorlashda sezilarli natijalar bermoqda [7]. Shu bilan barobar, raqamli egizaklar samolyot hayotiy tsiklida real-vaqt ma'lumotlari bilan ishlash orqali prediktiv MRO va operatsion optimallashtirishni yo'lga qo'yadi [4]. Bundan tashqari, NLP/ASR texnologiyalari ATC sohasida nutqni tozalash, transkripsiyalash va semantik talqin orqali inson–mashina hamkorligini mustahkamlaydi [12], blokcheyn esa MRO yozuvlarining o'zgarmasligi va "izlanuvchanligi"ni kafolatlashda muhim rol o'ynaydi [16].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son [Farmoniga](#) "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi ishlab chiqilib, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri etib, logistika tizimini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida raqamli logistika tizimiga bosqichma-bosqich o'tish belgilandi¹.

Shukurova S.M., Saydumarov I.M., Murodov M.M.lar (2022) O'zbekistonning yuqori havo hududida PBN/RNAV (zonal navigatsiya) marshrutlarini joriy etish masalasini o'rgandilar: amaldagi tuzilmani tahlil qilib, RNAV yo'llari orqali o'tkazuvchanlikni oshirish, dispatcher ish yukini kamaytirish, yoqilg'i sarfi va CO₂ chiqindilarini qisqartirish, kechikishlarni pasaytirish kabi samaralarni asoslab berdilar [15].

N.Z. Arifdzhanova (2025) ilmiy izlanishida O'zbekistonning transport-logistika tizimidagi raqamli transformatsiya holatini tizimli ko'rib chiqib, davlat tashabbuslari va xalqaro loyihalarning tranzit-protseduralarni soddalashtirish hamda tezlashtirishdagi rolini tahlil qiladi [2].

Zhuoming Du, Jiaxuan Wu, Yuanfei Leng, S. Wandeltlar "Air Traffic Management uchun Sun'iy Intellekt" yo'nalishidagi tadqiqotlarida sun'iy intellektning ATMdagi asosiy qo'llanishlarini — traektoriya va trafik prognozi, talab–sig'imni muvozanatlash, konfliktlarni aniqlash/yechish hamda hamkorlikdagi qarorlarni qo'llab-quvvatlash — tizimli xaritalab, ularning samaradorlik va cheklavlarini solishtirganlar [7].

A. Degas, M. R. Islam, Ch. Hurter, S. Barua, H. Rahman, M. Poudel, D. Ruscio, M. U. Ahmed — ATM sohasida AI va explainable AI (XAI) bo'yicha tizimli sharh berib, so'nggi o'n yillik ishlarni xaritaladi, asosiy qo'llanishlarni va metodik tendensiyalarni jamladilar [6].

Moghtadaei A. raqamli egizaklarning (DT) butun samolyot hayotiy siklida — ayniqsa xizmat ko'rsatish va ekspluatatsiyada — qiymatini tizimli ko'rsatadi: holatga asoslangan xizmat (CBM), RUL (qolgan resurs) baholash, bekor turish vaqtini va tannarxni qisqartirish kabilar [10].

Duraiyan D. (2025) Digital Twinlardan foydalangan holda samolyot tizimlari uchun real-vaqtga yaqin simulyatsiyalarni qurish, nosozliklarni oldindan aniqlash (predictive maintenance), xizmat rejalashtirishni optimallashtirish va ta'mir usullarini xavfsiz sinash (real bort ishini to'xtatmasdan) imkoniyatlarini tizimli tahlil qiladi [8].

Sinan Abdulhak, Wayne Hubbard, Karthik Gopalakrishnan, Max Z. Li strategik havo oqimini boshqarish (ATFM) uchun suhbatga asoslangan LLM agenti — CHATATCni ishlab chiqib, u yordamida Ground Delay Program (GDP) bo'yicha tarixiy hujjatlarni tezda izlash, xulosa qilish va savol-javobda qo'llash mumkinligini sinadilar[1].

G.Ya. Belyakova (2024) xulosasiga ko'ra, aviatsiya sohasida raqamli transformatsiya hayotiy siklga integratsiyalashgan, standartlarga tayanadigan va ma'lumot boshqaruvi hamda kadrlar kompetensiyasini kuchaytirishga yo'naltirilgan tizimli yondashuvni talab etadi; bu esa operatsion samaradorlik, tannarx va xavfsizlik ko'rsatkichlarini yaxshilaydi, biroq, investitsiya va regulativ moslik kabi cheklavlarni bosqichma-bosqich bartaraf etishni shart qiladi [3].

A.V. Shishkin (2025) aviatsiya texnikasi hayotiy siklining turli bosqichlarida yaratiladigan alohida raqamli egizaklarni yagona integratsiyalashgan konsepsiyaga bog'lab, ayniqsa ekspluatatsiya bosqichi uchun talablarga e'tibor qaratadi; maqsad — xizmat muddatini uzaytirish va ekspluatatsiya xavfsizligini ta'minlashdir [14].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot aralash metodga tayangan holda olib borildi: sohaning hozirgi holatini aniqlash uchun tizimli adabiyot sharhi, topilgan empirik natijalarni izohlash va umumlashtirish uchun deduktiv–induktiv mantiqiy yondashuvlarning kombinatsiyasi, hamda konseptual model va xulosalarni shakllantirish uchun analiz–sintez va abstraksiyalash–umumlashtirish usullari qo'llanildi. Yondashuvlar tanlovi aviatsiya tizimlarida xavfsizlik-muhimligi va ma'lumotga tayanadigan qarorlar ustunligi bilan izohlanadi. Tahlil analiz–sintez, qiyosiy tahlil, abstraksiyalash va umumlashtirish, sistemali yondashuvlardan foydalanildi.

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



TAHLIL VA NATIJALAR

Aviatsiya sohasida raqamli texnologiyalar — jarayonlarini raqamlashtirish, ulanish, avtomatlashtirish va aqlli tahlil orqali qayta tashkil etuvchi yechimlar majmui bo'lib, ular sensorlar va tarmoqlardan tortib, algoritmik modellar va ishonch infratuzilmasigacha bo'lgan qatlamlarni qamrab oladi. Aviatsiya tizimiga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi va ularning rivojlanish bosqichlarini o'rganib chiqamiz.

Raqamli fly-by-wire (FBW). Raqamli boshqaruv tizimlarining parvoz apparatlariga tatbiqi avval harbiy sinovlardan boshlangan: NASA 1972 yilda F-8 Crusader samolyotini to'liq digital fly-by-wire (mexanik zaxirasiz) tajriba platformasiga aylantirdi. Fuqarolik aviatsiyasida esa Airbus A320 1988 yilda ekspluatatsiyaga kirishi bilan raqamli FBW'ni ommaviy yo'lovchi laynerida birinchi bo'lib joriy qildi va shundan beri FBW sanoat normalaridan biriga aylandi. Airbusning o'zi FBW'ni "pilot buyruqlarini kompyuterlar qayta ishlab, aktuatorlarga elektr signallari uzatadigan, mexanik bog'lamlarni almashtiruvchi tizim" sifatida ta'riflaydi. Keyingi yillarda boshqa ishlab chiqaruvchilar ham FBW'ga o'tdi — bu butun sanoat uchun raqamli boshqaruv falsafasining keng qabul qilinganini ko'rsatadi [20].

ATM'ni raqamlashtirish. AQSh milliy havo tizimini raqamlashtirish bo'yicha tizimli burilish 2004 yilda qabul qilingan NextGen Integrated Plan bilan belgilanadi [17]. Ushbu yo'l xaritasining eng ko'zga ko'ringan operatsion komponentlaridan biri — ADS-B Out, ya'ni Automatic Dependent Surveillance–Broadcast (ADS-B) Out — bortdagi GNSS (GPS)dan olingan aniq pozitsiya, balandlik, yer tezligi va identifikatsiya ma'lumotlarini har soniyada e'firoga uzatadigan kuzatuv texnologiyasi. Bu ma'lumotni yer stansiyalari va boshqa samolyotlar qabul qiladi; aniqligi klassik radardan yuqori.

Yevropada SESAR / European ATM Master Plan — raqamli va "yashil" osmon sari. Yevropada ATM modernizatsiyasi SESAR doirasida amalga oshirilib, 2025-yilgi European ATM Master Plan "Digital European Sky" konsepsiyasini markazga qo'yadi: maqsad — 2045 yilgacha butun gate-to-gate zanjirini raqamlashtirish, samaradorlik va ekologik ko'rsatkichlarni sezilarli yaxshilash.

2010-yillar oxiri – 2020-yillar: Digital Twin, MRO va operatsion analitika. Digital Twin, 2010-yillar oxiri va 2020-yillarda aviatsiyada ayniqsa MRO va strukturaviy monitoringda rivojlandi. Oxirgi sharhlar ADT (airframe digital twin) bo'yicha ko'p-fizikli va ma'lumotga asoslangan modellarni birlashtirish, prognoz-xizmat va resursning qolgan muddatini baholash amaliyotga kirib borayotganini qayd etadi [5].

Aviatsiya sohasida qo'llanilayotgan raqamli texnologiyalarni tahlil qilamiz.

ATMda AI/ML: trafikni prognoz qilish, konfliktni yechish va qarorlarni qo'llab-quvvatlash.

Birinchiidan, bu texnologiya trafik oqimini prognoz qilishga doir ishlar juda sermahsul. Garchi usullar xilma-xil bo'lsa-da, yagona maqsad — Traffic Management Initiatives (TMI) kabi choralarning oldindan rejalashtirilishiga erishishdir.

Ikkinchiidan, konfliktni aniqlash va yechish bo'yicha yondashuvlar orasida chuqur mustahkamlashgan o'rganish ayniqsa e'tiborlidir. Bu yerda ko'pincha multi-agent tuzilmalar qo'llaniladi: agentlar traektoriyalarni xavfsiz ajratish va kechikishlarni minimallashtirish uchun mukofot funksiyasi asosida o'qitiladi. Albatta, real tizimlarga joriy etishdan avval, simulyatsiya muhitlarida qat'iy testlar o'tkaziladi; shunga qaramay, hozirning o'zida ham bunday yondashuvlar konfliktlar sonini sezilarli kamaytirishi mumkinligi ko'rsatilgan [16].

Uchinchiidan, qarorlarni qo'llab-quvvatlash va LLM-agentlar mavzusi ham jadal sur'atda rivojlanmoqda. Masalan, CHATATC singari konsepsiyalar strategik oqim boshqaruvida muloqotga asoslangan, izohli va ssenariyga moslashuvchan qarorlar ishlab chiqish imkonini tahlil qiladi. Bu, tabiiyki, yakuniy qarorlar inson nazorati ostida qabul qilinishini istisno etmaydi, ammo jarayonni ancha shaffof va izchil qiladi [16].

Digital twins (DT) MRO va operatsiyalarda: real-vaqt sintezi va prediktiv xizmat. DT konsepsiyasi — bu sensorlar–fizik model–analitika uchligini uzluksiz yopiq konturga bog'laydigan intellektual mexanizm. MRO kesimida DT prediktiv texnik xizmat (PdM) orqali nosozliklarning oldini olish, inspeksiya oraliqlarini optimallashtirish va ehtiyot qismlar logistikasini aqlli rejalashtirishga xizmat qiladi [4].

Bundan tashqari, DT–AI integratsiyasi, masalan, federatsiyalangan o'qitish (ma'lumot maxfiyligini saqlagan holda distributiv o'qitish), edge–cloud arxitekturalari (kechikishni pasaytirish va resurslarni oqilona taqsimlash) hamda IoT tarmoqlari bilan uyg'unlashganda, qaror qabul qilish zanjiri yanada tez va ishonchli bo'ladi [9]. Strukturaviy monitoring yo'nalishida esa, sog'liq holatini nazorat qilish va qolg'usi resurs baholash orqali komponentlar bo'yicha servis strategiyalari aniqroq tuziladi; bu orqali inspeksiya vaqtini sezilarli qisqartirish va tannarxni pasaytirish imkoniyati paydo bo'ladi [5].

NLP/ASR ATC muloqotida: shovqinni kamaytirish va semantik aniqlik.

ATC muloqoti — aviatsiya xavfsizligining o'zak elementlaridan biri. Shuning uchun, nutqni avtomatik tanish (ASR) va NLP modullarining ishonchligi kuchli talab ostida. Ko'plab ishlarda spektral shovqin kamaytirishdan keyin ko'rsatkichlar sezilarli yaxshilanishi qayd etiladi; bu esa buyruq va javoblarning aniqroq talqin qilinishiga, xatoliklar kamayishiga va jarayon xavfsizligining oshishiga olib keladi [12]. Ushbu tizimlar ATCO–pilot muloqotini kodlash, verifikatsiya va avtomatik protokollash orqali nafaqat standartlashtiradi, balki auditorlik nuqtayi nazaridan ham qulayliklar yaratadi.




4. Blokcheyn MROda: ishonch va izchillik. MRO jarayonlarida blokcheynning afzalligi, avvalo, o'zgarmas reyestr yaratishidir. Bu nimani anglatadi? Demak, buyurtma–o'rnatish–inspeksiya–ta'mirlash–hisobot zanjiridagi barcha yozuvlar tamg'alanadi va izchilligi ta'minlanadi. Natijada, komponent kelib chiqishini kuzatish, kontrafakt xavfini pasaytirish va manfaatdor tomonlar o'rtasida ishonchli ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish osonlashadi. [16].



1-rasm. Aviatsiya bulutli texnologiyalar bozori ²

Yuqoridagi rasmda aviatsiya bulutli texnologiyalarining global bozori ishtirokchilarini ko'rishimiz mumkin. Aviatsiya uchun mo'ljallangan bulutli texnologiyalar bozorining asosiy manfaatdolari aviatsiya, kichik va o'rta korxonalar, distribyuterlar, yetkazib beruvchilarga o'z bulutli xizmatlarini taklif qiluvchi yirik korxonalar hisoblanadi. Bugungi kunda ular orasida Amazon Web, Service (AWS), Microsoft Azure, IBM, Oracle kabilar yetakchi kompaniyalar hisoblanmoqda.



2-rasm. Aviatsiya dasturiy ta'minot bozori ulushi ³


² Manba: <https://www.marketsandmarkets.com>

³ Manba: <https://www.precedenceresearch.com>



Yuqoridagi doira-diagramma 2024 yilda aviatsiya dasturiy ta'minoti bozorining mintaqalar bo'yicha ulushini ko'rsatadi: Shimoliy Amerika – 36%, Yevropa – 29%, Osiyo-Tinch okeani – 22%, Lotin Amerikasi – 8%, Yaqin Sharq va Afrika (MEA) – 5%. Bunda yetuk bozorlar ya'ni, Shimoliy Amerika, Yevropada regulyatsiya, xavfsizlik talablari va katta aviakompaniyalar ekotizimi yirik IT sarmoyalarini talab qiladi — shu bois ulush yuqori; Osiyo-Tinch okeanida ulush pastroq bo'lsa-da, yo'lovchi oqimining o'sishi, yangi aeroportlar, MRO klasterlari sabab o'sish sur'atlari odatda tez; Lotin Amerikasi va MEAda ulush kichik, ammo raqamli infratuzilma, flotni yangilash, TMC/ATFM modernizatsiyasi kabi omillar bosqichma-bosqich talabni kengaytiradi.

Eng avvalo, AI/MLning ATM jarayonlarini optimallashtirishdagi foydasi shubhasiz: trafik prognozi, konfliktlarni erta aniqlash, resurslarni taqsimlash kabi vazifalarda aniq qo'shimcha qiymat yaratilmoqda [19]. Shu bilan birga, auditga tayyor va human-in-the-loop tamoyiliga mos holda ishlab chiqilishi zarurdir. Demak, ATCOLar uchun shaffoflik, javobgarlik va ergonomik interfeys — texnologiyani qabul qilish va undan samarali foydalanishning asosiy sharti [13].



3-rasm. Raqamli transformatsiya hal etadigan muammolar⁴

Yuqoridagi rasmda ko'rib turganimizdek, raqamli transformatsiya aviatsiyada moliyaviy oqimlarni tartibga soladi, yer usti jarayonlarini uyg'unlashtiradi va ekologik talablarga mos ishlashni ta'minlaydi. Xavfsizlik darajasi hamda himoya tizimlari mustahkamlanib, yo'lovchi tajribasi shaxsiylashtirilgan xizmatlar, tezkor aloqa va soddalashtirilgan jarayonlar orqali yaxshilanadi. MRO faoliyati prediktiv yondashuvlar bilan rejalashtirilib, bekor turishlar qisqaradi va resurslar oqilona taqsimlanadi. Natijada, operatsion samarasizliklar bartaraf etilib, reyslar jadvali va flot boshqaruvi real vaqt tahlili asosida optimallashtiriladi.

Aviatsiyada raqamli texnologiyalarni tadbiq etish ko'plab muammolarni hal etishiga qaramasdan, bir qancha masalalar ham borki, ularni o'rganib chiqish zarur. Masalan, DT yondashuvi, bir tomondan, u MRO va operatsiyalarda real-vaqt sintezini ta'minlab, nosozliklarning oldini olish va inspeksiya jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Biroq, boshqa tomondan, keng ko'lamda joriy etish uchun sensor tarmoqlari yetukligi, model aniqligi, ma'lumot sifati va standartlashtirish talab etiladi [4;9;11].

4 Manba: <https://symphony-solutions.com>



Shuningdek, NLP/ASR yo'nalishi bo'yicha ham ko'p narsa aytish mumkin. Bir qarashda "texnik detallar"dek tuyuladigan shovqinni kamaytirish yoki SNR ni yaxshilash kabi metrikalar aslida operatsion xavfsizlik bilan bevosita bog'liq. Shu bois, ko'p tillilik, kasbiy jargon va real vaqt talabini hisobga olgan holda, model va interfeyslar xatoga chidamli dizayn asosida ishlab chiqilishi lozim [12].

Va nihoyat, blokcheyn. Nazariy jihatdan, MRO yozuvlari uchun ideal yechimdek ko'rinadi: o'zgarmas reyestr, ishonchli almashinuv, izchillik va shaffoflik. Amalda esa, operatsion xarajatlar, shkala, latensiya, hamda regulyatorlar bilan muvofiqlik kabi omillar muvaffaqiyatni belgilab beradi. Aniqrog'i, bu yo'nalishda sinov loyihalari va sanoat–regulyator hamkorligi talab etiladi [16].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bir so'z bilan aytganda, raqamli texnologiyalar aviatsiyani ma'lumot markazli, moslashuvchan va bashoratchi tizimga aylantirmoqda. ATMDa AI/ML trafikni oldindan ko'ra olish va konfliktlarni avtomatik hal etish ko'nikmalarini kengaytirs, DT MRO va operatsiyalarda real-vaqt monitoring hamda prediktiv xizmat orqali tannarx va to'xtab turish vaqtlarini kamaytiradi. Shu bilan birga, NLP/ASR ATC muloqotini shaffof va standartlashtirilgan qiladi, blokcheyn esa MRO ekotizimida ishonch inshootini mustahkamlaydi. To'g'ri, xavfsizlik, izohlanish, me'yoriy moslik, standartlashtirish va inson–AI hamkorligi kabi masalalar hali ham markaziy o'rin tutib kelmoqda. Biroq, sanoat–akademiya–regulyator uchligi birgalikda harakat qilsa, integratsion pilotlar orqali amaliy natijalarni tezroq qo'lga kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. S. Abdulhak, Max Z. Li, W. Hubbard, K. Gopalakrishnan. "CHATATC: Large Language Model-Driven Conversational Agents for Supporting Strategic Air Traffic Flow Management". Nanyang Technological University, Singapore, ICRAT 2024.
2. Arifdzhanova N.Z. "Цифровая трансформация транспортно-логистической системы Узбекистана". Universum: технические науки, 2025, 3(132). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/19629>
3. Белякова Г.Я., Аврамчиков В.М. "Специфика и особенности цифровой трансформации авиаотрасли". Вестник ТГУ. Экономика, 2024, №68, 273–292.
4. Giovanni Marco Bisanti, Luca Mainetti, Teodoro Montanaro, Luigi Patrono, Ilaria Sergi. "Digital twins for aircraft maintenance and operation: A systematic literature review and an IoT-enabled modular architecture". Internet of Things, 2023, 24:100991.
5. Joelle W.Y. Chia, Wim J.C. Verhagen, Jose M. Silva, Ivan S. Cole. "A review and outlook of airframe digital twins for structural prognostics and health management in the aviation industry". Journal of Manufacturing Systems, 2024, 77:398–417. <https://doi.org/10.1016/j.jmsy.2024.09.024>
6. Degas, A.; Islam, M.; Hurter, C.; Barua, S.; Rahman, H.; Poudel, M.; Ruscio, D.; Ahmed, M.U.; Begum, S.; Rahman, M.; Cartocci, G.; Di Flumeri, G.; Borghini, G.; Babiloni, F.; Aricò, P. "A Survey on Artificial Intelligence (AI) and eXplainable AI in Air Traffic Management...". Applied Sciences, 2022.
7. Zhuoming Du, Jiaxuan Wu, Yuanfei Leng, Sebastian Wandelt. "AI4ATM: A review on how Artificial Intelligence paves the way towards autonomous Air Traffic Management". Journal of the Air Transport Research Society, 2025, 5:100077.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>